

**STQ 39 “Madaniy boyliklar” sohasida standartlashtirish bo'yicha texnik  
qo'mita to'g'risida  
NIZOM**

**1. Qo'llanish doirasi**

Ushbu Nizom “Madaniy boyliklar” sohasida standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitaning (keyingi o'rinlarda - STQ) faoliyat sohasi, tuzilmasi, asosiy vazifalari, funksiyalari, huquq va majburiyatlari, shuningdek, standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitaning ishlarni bajarish qoidalarini belgilaydi, hamda madaniy boyliklar sohasida standartlashtirish bo'yicha faoliyatda ishtirok etuvchi tashkilotlarga qo'llaniladi

**2. Normativ havolalar**

Ushbu Nizomda O'zMSt 001:2025 “Standartlarning milliy tasniflagichi”ga havola qilingan.

**3. Asosiy tushunchalar**

Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

milliy standart — O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining O'zbekiston standartlar instituti tomonidan qabul qilingan hamda keng jamoatchilik uchun ochiq bo'lgan standart;

standart — faoliyatning har xil turlariga yoki ularning natijalariga taalluqli bo'lgan, umumiy va ko'p marta foydalanish uchun qoidalarni, umumiy prinsiplarni yoki tavsiflarni belgilaydigan hamda muayyan sohada tartibga solishning eng maqbul darajasiga erishishga qaratilgan hujjat;

standartlashtirish — muayyan sohada tartibga solishning eng maqbul darajasiga erishishga qaratilgan, haqiqatda mavjud bo'lgan yoki kutilayotgan vazifalarga nisbatan umumiy va ko'p marta foydalanish uchun qoidalarni belgilaydigan faoliyat;

standartlashtirish bo'yicha milliy organ — O'zbekiston Texnik jihatdan tartibga solish agentligining O'zbekiston standartlar instituti;

standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mita — faoliyatning yo'nalishlari bo'yicha standartlashtirish tizimini rivojlantirishni amalga oshirishda ishtirok etuvchi maslahat-kengash organi;

standartlashtirish obyekti — mahsulot, tovarlar, xizmatlar (bundan buyon matnda mahsulot deb yuritiladi), jarayonlar, menejment tizimlari, atamalar, shartli belgilar, tadqiqotlar (sinash), o'lchash (shu jumladan namunalarni tanlash) hamda

sinash usullari, tamgʻalash, muvofiqlikni baholash tartib-taomillari va boshqa obyektlar;

xalqaro (mintaqaviy) standart — standartlashtirish boʻyicha xalqaro yoki mintaqaviy tashkilot tomonidan qabul qilingan va keng jamoatchilik doirasi uchun ochiq boʻlgan standart;

xorijiy mamlakatning standarti — xorijiy mamlakatning standartlashtirish boʻyicha vakolatli organi (tashkiloti) tomonidan qabul qilingan standart.

#### **4. Umumiy qoidalar**

**4.1** Standartlashtirish boʻyicha texnik qoʻmita Standartlashtirish boʻyicha milliy organning qarori bilan tashkil etiladi.

STQ kotibiyati “ART VERNISSAGE” MCHJ tomonidan yuritiladi.

**4.2** STQ ning asosiy maqsadlariga quyidagilar kiradi:

Madaniy boyliklar sohasida standartlashtirishni rivojlantirish;

Madaniy boyliklar sohasida milliy va xalqaro standartlarni oʻz vaqtida ishlab chiqishni taʼminlash;

Madaniy boyliklar sohasidagi standartlashtirishga doir normativ hujjatlarni xalqaro talablar bilan uygʻunlashtirish;

**4.3** STQ ning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

standartlarni qabul qilish, standartlashtirish boʻyicha normativ hujjatlarni ishlab chiqish, oʻzgartirishlar kiritish, qayta koʻrib chiqish va bekor qilish boʻyicha takliflar tayyorlash;

Oʻzbekiston Respublikasida amalda boʻlgan va STQga biriktirilgan standartlarni hamda standartlashtirish boʻyicha madaniy boyliklar sohasiga oid normativ hujjatlarni tahlil qilish;

tahlil natijalaridan kelib chiqib, zarur hollarda “Standartlarni ishlab chiqish, oʻzgartirishlar kiritish, qayta koʻrib chiqish va bekor qilish ish rejasi” loyihasini (keyingi oʻrinlarda – standartlashtirish rejasi) shakllantirish;

joriy yil uchun STQ ish dasturi va ish rejasini shakllantirish;

ishlab chiqish rejasini amalga oshirish boʻyicha ishlarni tashkil etish;

STQ ish rejasiga muvofiq standartlashtirish boʻyicha normativ hujjatlar loyihalarini koʻrib chiqish va muhokama qilishni tashkil etish;

xorijiy davlatlar standartlarini, xalqaro, mintaqaviy standartlarni Oʻzbekiston Respublikasiga joriy qilish va aktualligini yoʻqotgan amaldagi standartlarni bekor qilish boʻyicha takliflar tayyorlash;

STQ faoliyat sohasiga muvofiq standartlashtirish boʻyicha normativ hujjatlarning axborot bazasini shakllantirish va yuritish;

STQ faoliyati sohasida standartlashtirish holati toʻgʻrisida tahliliy materiallar tayyorlash;

standartlashtirish sohasidagi ilmiy tadqiqotlarda ishtirok etish;

standartlashtirish bo'yicha xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarning STQlarida ishtirok etish.

**4.4** STQ o'z faoliyatida ushbu nizom va quyidagilarga amal qiladi:

O'zbekiston Respublikasi qonunlariga;

O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlariga;

O'zbekiston Texnik jihatdan tartibga solish agentligining amaldagi normativ-huquqiy, tashkiliy-uslubiy hujjatlariga;  
xalqaro standartlarga.

## **5. Standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitaning faoliyat sohasi**

5.1 Texnik qo'mitaning standartlashtirish bo'yicha faoliyat sohasi.

O'zMSt 001:2025 "Standartlarning milliy tasniflagichi"ga muvofiq quyidagi koddan iborat:

**03.100.01** Firmalarni tashkil etish va ularni boshqarish, umuman

\* Shu jumladan huquqiy jihatlar va risklarni boshqarish, ijtimoiy xavfsizlik, Outsorsing;

**13.310** Jinoyatlardan himoya qilish

\*Buzib kirishga qarshi avariya signalizatsiyasi, buzib kirishga qarshi materiallar va uskunalar, o'q teshmas materiallar va uskunalar hamda shu kabilar;

**35.240.30** Axborot, hujjatlashtirish sohasida va noshirlik ishida axborot texnologiyalarini qo'llash

\* Shu jumladan chiziqning standart umumlashtirilgan tili (SGML), chiziqning kengaytirilgan tili (XML), avtomatik tarjima qilish mashinasi va sh.k.;

**35.240.95** Internet ilovalari;

**37.040.01** Umuman fotografiya;

**37.040.10** Fotografiya asbob-uskunolari. Proektorlar;

**37.040.99** Fotografiya, boshqa jihatlar;

**97.195** San'at va hunarmandchilik buyumlari. Madaniy boyliklar va meros

\* Shu jumladan san'at va hunarmandchilik buyumlarini yaratish uchun asbob-uskunalar va materiallarni saqlash.

## **6. Standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitaning tarkibi**

6.1 STQ tarkibiga quyidagilar kiradi:

rais;

rais o'rinbosari;

mas'ul kotib;

kotibiyat;

texnik qo'mita a'zolari;

6.2 STQ a'zolari "ART VERNISSAGE" MCHJ, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San'atshunoslik instituti, O'zbekiston badiiy akademiyasi, O'zbekiston

Respublikasi Madaniy meros agentligi, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, O'zbekiston Respublikasi "Xunarmand" uyushmasining tashkilotlarning vakillari hisoblanadi.

6.3 STQ da teng huquqli a'zolik belgilanadi. STQ tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarda manfaatdor shaxslar, alohida mutaxassislar, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar vakillari ovoz berish huquqisiz ishtirok etishlari mumkin.

Manfaatdor shaxs STQ faoliyatida ishtirok etish uchun STQ kotibiyatiga xo'jalik yurituvchi subyektning doimiy vakili aloqa ma'lumotlari (to'liq ismi-sharifi, lavozimi, telefon raqami, elektron pochta manzili) ko'rsatilgan xat yuboradi. Xo'jalik yurituvchi subyektning doimiy muxtor vakillari STQ kotibiyati bilan, STQ mas'ul kotibi bilan doimiy o'zaro hamkorlikni amalga oshiradilar.

6.4 STQ tarkibi STQ yig'ilishida ko'rib chiqiladi va ko'rib chiqilgan hujjat nusxasi Texnik jihatdan tartibga solish agentligi huzuridagi O'zbekiston Standartlar insitutiga yuboriladi.

6.5 STQ mavjud normativ hujjatlar loyihalarini ekspertizadan o'tkazish, ilmiy-texnik darajasini baholash va standartlashtirish sohasidagi boshqa muayyan ishlarni amalga oshirish uchun quyi qo'mitalar (STQQ), doimiy yoki vaqtinchalik ishchi guruhlar (IG) tuzishi mumkin.

6.6 STQQ va IG tarkibi STQ yig'ilishida shakllantiriladi.

6.7 STQQ rahbari ovoz berish yo'li bilan saylanadi.

6.8 STQ tuzilmasini o'zgartirish (yangi STQQ, IG larni shakllantirish) STQ yig'ilishlarida ko'rib chiqilishi kerak.

6.9 STQ tarkibi ISOlutions tizimi orqali yangilanib boriladi.

## **7. Standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mita raisi, rais o'rinbosari, mas'ul kotibi, kotibiyati va a'zolarining vazifalari, majburiyatlari, huquqlari**

7.1 STQ raisining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

STQ, shu jumladan uning STQQ va IG faoliyatini tashkil etish va boshqarish; standartlashtirishning maqsad va vazifalariga muvofiq STQ faoliyatining texnik siyosatini belgilash;

barcha tashkilotlarda STQ faoliyat sohasiga oid masalalarni taqdim etish;

STQ Ish dasturi va Ish rejasini tasdiqlash;

STQ yig'ilishlarini o'tkazish.

7.2 STQ raisi o'rinbosari rais tomonidan yuklangan vazifalarni, shuningdek, u yo'qligida raisning vazifalarini bajaradi.

7.3 Rais, rais o'rinbosari o'zlariga yuklangan vazifalarni bajarishga mas'uldirlar va ular quyidagi huquqlarga ega:

davlatlararo standartlar loyihalarini ko'rib chiqish bosqichida standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilotlar, xalqaro va davlatlararo texnik qo'mitalar bilan

to'g'ridan-to'g'ri hamkorlikni amalga oshirish va ularni kelgusida O'zbekiston Respublikasida qo'llash bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

faoliyat sohasi o'xshash bo'lgan standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilotlarning texnik qo'mitalari (STQQ, IG) faoliyatida ishtirok etish;

STQ ning navbatdagi yig'ilishini tashkil etish;

kechiktirib bo'lmaydigan masalalarni hal qilish uchun navbatdan tashqari yig'ilish chaqirish;

zarur hollarda STQQ va IG tuzish, STQga yangi a'zolari qabul qilish yoki o'z vazifalarini bajarmaydigan a'zolari chetlashtirish to'g'risida takliflar kiritish.

7.4 STQ kotibiyati ishiga STQ mas'ul kotibi rahbarlik qiladi.

STQ mas'ul kotibi quyidagi vazifalarni bajaradi:

STQ yig'ilishlariga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazishni ta'minlash;

manfaatdor xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan hujjatlarni ko'rib chiqishni tashkil etish;

STQ ga kelib tushgan materiallar va hujjatlar loyihalarini STQ a'zolari tomonidan ko'rib chiqilishini ta'minlash;

STQ ga kiritilgan STQQ va IG faoliyatini muvofiqlashtirish.

STQ faoliyatini to'liq ISOolutions tizimida tashkil etish.

7.5 STQ mas'ul kotibi quyidagilarni ta'minlashi shart:

STQ a'zolarini bo'lajak yig'ilish to'g'risida o'z vaqtida xabardor qilish;

tasdiqlangan kun tartibiga muvofiq STQ a'zolarini zarur hujjatlar bilan ta'minlash;

yig'ilish bayonnomasi loyihasini tasdiqlash uchun kiritish;

tasdiqlangan bayonnomani STQ a'zolariga tarqatish.

7.6 STQ mas'ul kotibi quyidagi huquqlarga ega:

yig'ilish sanasi va vaqtini belgilash uchun texnik qo'mitaning navbatdagi yig'ilishi kun tartibini raisga taqdim etish;

navbatdan tashqari yig'ilish o'tkazish zarurligi to'g'risida taklif kiritish;

ishlab chiquvchi tashkilotlardan yig'ilish kun tartibiga kiritilgan standartlashtirish bo'yicha normativ hujjatlar loyihalari bo'yicha hujjatlarni o'z vaqtida taqdim etilishini talab qilish.

7.7 STQ kotibiyati quyidagi vazifalarni bajaradi:

standartlashtirish ishlariga ilmiy-texnikaviy, tashkiliy va uslubiy rahbarlik qilish, shuningdek, madaniy boyliklar sohasidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarda standartlashtirish xizmatlari faoliyatini muvofiqlashtirish yo'li bilan ushbu ishlarga qo'yiladigan talablarning texnik birligini ta'minlash;

ishlab chiquvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlar, shu jumladan standartlar loyihalari, tushuntirish xatlari hamda mulohazalar va takliflar haqidagi ma'lumotnomalarning to'g'ri rasmiylashtirilganligini va manfaatdor xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan kelishuv mavjudligini tekshirish;

standartlar loyihalarini va boshqa hujjatlarni ekspertizadan o'tkazish uchun tayyorlash va tasdiqlash uchun taqdim etish;

manfaatdor tomonlar bilan muhokama qilish uchun standartlar loyihalarini internet tarmog'iga joylashtirish;

STQ Ish dasturlari va Ish rejalarining loyihalarini tayyorlash va ularning bajarilishini nazorat qilish;

STQ Ishlab chiqarish rejasi loyihasini tuzish va normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishni tashkil etish;

STQ ga biriktirilgan davlat standartlari ro'yxatini aktallashtirish;

joriy yilda tekshirilishi lozim bo'lgan standartlashtirish bo'yicha normativ hujjatlar ro'yxatini tayyorlash;

standartlashtirish bo'yicha normativ hujjatlarni tekshirish natijalarini umumlashtirish va ularni STQ tomonidan ko'rib chiqish uchun yuborish;

Madaniy boyliklar sohasidagi xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan yozishmalarni olib borish, hujjatlarni rasmiylashtirish va hisobga olish;

STQ faoliyati yuzasidan yillik hisobot tayyorlash;

hisobotni raisga tasdiqlash uchun taqdim etish va yillik hisobotni keyingi yilning 1-fevralidan kechiktirmay Standartlar institutiga yuborish.

7.8 STQ kotibiyati quyidagilarni ta'minlashi kerak:

STQ Ish dasturi va ish rejasi loyihalarini hamda yillik hisobotni o'z vaqtida tayyorlash;

bayonnoma loyihalarini belgilangan muddatlarda tayyorlash;

joriy yilda tekshirilishi lozim bo'lgan standartlashtirish bo'yicha normativ hujjatlar ro'yxatini madaniy boyliklar sohasidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarga tarqatish;

joriy yildagi tekshiruv natijalari bo'yicha xulosa jadvalini tayyorlash va STQ tomonidan ko'rib chiqish uchun taqdim etish.

7.9 STQ kotibiyati quyidagi huquqlarga ega:

madaniy boyliklar sohasidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarga standartlashtirish masalalari bo'yicha zarur ma'lumotlarni taqdim etish uchun so'rovlar yuborish;

STQ yig'ilishiga taqdim etish talablariga javob bermaydigan normativ hujjatlar loyihalarini mas'ul ijrochilarga qaytarish;

STQ ish dasturi va ish rejasining bajarilishini nazorat qilish;

bayonnoma loyihalarini tayyorlash uchun zarur ma'lumotlarni olish;

standartlashtirish masalalari bo'yicha Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Texnik jihatdan tartibga solish agentligi tomonidan o'tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etish uchun vakillarini yuborish.

7.10 STQ a'zolari quyidagi vazifalarni bajaradilar:

STQ, STQQ va IG faoliyati va yig'ilishlarida o'z muxtor vakili ishtirokini ta'minlash;

STQ, STQQ va IG yig'ilishlarda ko'rilgan barcha masalalar bo'yicha takliflar kiritish va ovoz berish;

hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda asosiy ijrochi va hamijrochi sifatida ishtirok etish, yig'ilishlar uchun materiallarni tayyorlash va hujjatlar loyihalarini ko'rib chiqishda ishtirok etish;

STQ yig'ilishlarida ko'rib chiqilgan standartlar va boshqa normativ hujjatlar loyihalari yuzasidan mulohazalar, ekspert xulosalari loyihalari bo'yicha takliflar berish;

STQ faoliyati yuzasidan takliflar kiritish, STQ tomonidan o'tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etish.

7.11 STQ a'zolari quyidagilarga majbur:

STQ yig'ilishlarida qatnashish;

ko'rib chiqilayotgan standartlar va boshqa normativ hujjatlar loyihalarini muhokama qilishda faol ishtirok etish.

7.12 STQ a'zolari quyidagi huquqlarga ega:

STQ tomonidan bajariladigan barcha ishlarda ishtirok etish;

standartlar va boshqa normativ hujjatlar loyihalarini ko'rib chiqish uchun zarur materiallarni olish;

standartlar loyihalarini muhokama qilishda ishtirok etish;

standartlarni ishlab chiqish va yangilash, shuningdek aktualligini yo'qotgan standartlarni bekor qilish yuzasidan takliflar berish;

STQ faoliyatini takomillashtirish yuzasidan takliflar berish;

STQ tarkibidan chiqish.

## **8. Standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitaning ish tartibi**

Standartlashtirish ishlarini rejalashtirish yo'nalishida ishlarni amalga oshirish. bo'yicha:

8.1 TQ davlat standartlashtirish rejasini va soha yo'nalishi bo'yicha standartlashtirish dasturlarini shakllantirishda ishtirok etadi;

8.2 TQ kotibiyati TQga a'zo tashkilotlarning takliflarini, STQQ (quyi qo'mita) qarorlarini va Agentlik tomonidan belgilangan ustuvor vazifalarni hisobga olgan holda standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitaning ish dasturini ishlab chiqadi. Standartni ishlab chiqish bo'yicha taklif kelib tushganda, kotibiyat uni ishlab chiqishning maqsadga muvofiqligini TQ a'zolari o'rtasida yig'ilishda yoki masofadan turib muhokama qilishi shart;

8.3 TQ a'zo bo'lgan tashkilotlarning takliflari asosida har yili davlat standartlashtirish rejasiga kiritish uchun takliflar tayyorlaydi;

8.4 Tasdiqlangan davlat standartlashtirish rejasiga o'zgartirishlar kiritish zarurati tug'ilganda, a'zo tashkilotlar TQ doirasida ko'rib chiqish uchun qo'shimcha takliflar va arizalar kiritadilar.

Standartlarni ishlab chiqish va tekshirish bo'yicha:

8.5 Milliy hamda dastlabki standartlar qo'mita tomonidan manfaatdor taraflarning vakillari bilan birgalikda ishlab chiqiladi;

8.6 TQ standartlashtirish sohasidagi me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq standartlarni ishlab chiqadi;

8.7 TQ standartlarning O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlariga, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga, texnik reglamentlarga, xalqaro (mintaqaviy) standartlarga mos kelishini tahlil qilish maqsadida ko'rib chiqib ularning o'zgartirilmasdan kuchda qolishi yoki ularni qayta ko'rib chiqish, o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risida xulosa qiladi;

8.8 Standartlarni tekshirishda TQ standartlashtirish sohasidagi me'yoriy hujjatlar talablariga amal qiladi;

8.9 Agar standartlarni tekshirish jarayonida standartni bekor qilish maqsadga muvofiqligi aniqlansa, TQ kotibiyati standartlashtirish sohasidagi me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq ushbu standartni bekor qilish bo'yicha ishlarni tashkil qiladi.

Standartlashtirish bo'yicha xalqaro (mintaqaviy) tashkilotlarning standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitalari (quyi qo'mitalari, guruhleri) ishida ishtirok etish:

8.10 TQ xalqaro (mintaqaviy) standartlashtirish tashkilotlarining standartlari loyihalarini ko'rib chiqadi va ushbu loyihalar bo'yicha ovoz berishda O'zbekiston Respublikasining takliflarini tayyorlashda ishtirok etadi;

8.11 TQ o'xshash faoliyat sohasiga ega bo'lgan xalqaro (mintaqaviy) standartlashtirish tashkilotlarining TQ (quyi qo'mitalari, guruhleri) ishida milliy oyna qo'mita sifatida ishtirok etadi;

8.12 Texnik qo'mita xalqaro (mintaqaviy) standartlashtirish tashkilotlarida mavjud ish qoidalariga muvofiq faoliyat olib boradi.

8.13 Xalqaro (mintaqaviy) standartlashtirish tashkilotlari kotibiyatini yuritishda yoki ular ishida ishtirok etishda ushbu xalqaro (mintaqaviy) Texnik qo'mita nizomlariga amal qiladi.

## **9. Standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mita faoliyatini moliyalashtirish**

9.1 STQ kotibiyatining faoliyatini hamda madaniy boyliklar sohasida xalqaro standartlarni qabul qilish, standartlashtirish bo'yicha normativ hujjatlarni ishlab chiqish, o'zgartirish, qayta ko'rib chiqish va bekor qilish bo'yicha ishlarni moliyalashtirish "ART VERNISSAGE" MCHJ tomonidan amalga oshiriladi.

Shuningdek, STQ faoliyatini moliyalashtirish manbalari ishlab chiqish tashabbuskorlarining mablag'lari va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa jamg'armalar hisoblanadi.

9.2 Doimiy vakillarning STQ faoliyatida ishtirok etish xarajatlari STQ a'zolarining o'zlari tomonidan qoplanadi.

9.3 Xalqaro yoki davlatlararo standartlashtirish rejasiga kiritilgan ishlarni moliyalashtirish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

9.4 STQ kotibiyati tomonidan alohida kompaniya, korxona va tashkilotlar uchun bajariladigan ishlar shartnoma asosida moliyalashtiriladi.